

M. Mirzaitova
Magistr
O.Astanakulov
DSc, prof.
Ilmiy rahbar
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

ANNOTATSIYA. Maqolada O'zbekiston Respublikasida turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilishning nazariy, tashkiliy va amaliy jihatlari tahlil etilgan. Investitsion faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar, uni moliyalashtirish manbalari hamda huquqiy va iqtisodiy mexanizmlar o'rganilgan. Xorijiy tajribalar asosida turizm korxonalarida investitsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari yoritilgan va moliyaviy-investitsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: turizm, investitsion faoliyat, moliyalashtirish mexanizmi, xorij tajribasi, sof foyda, raqobatbardoshlik.

М. Мирзайтова
Магистрант
О. Астанакулов
доктор наук (DSc) профессор
Научный руководитель
Международная исламская академия Узбекистана

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ В СФЕРУ ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются теоретические, организационные и практические аспекты привлечения инвестиций в туристическую сферу Республики Узбекистан. Изучены факторы, влияющие на эффективность инвестиционной деятельности, источники её финансирования, а также правовые и экономические механизмы. На основе зарубежного опыта раскрыты пути развития инвестиционной деятельности в

туристических предприятиях и показаны особенности финансово-инвестиционной деятельности.

Ключевые слова: туризм, инвестиционная деятельность, механизм финансирования, зарубежный опыт, чистая прибыль, конкурентоспособность.

In English:
M. Mirzaitova
Master's Student
O. Astanakulov
DSc, Professor
Scientific Supervisor
International Islamic Academy of Uzbekistan

IMPROVING THE ATTRACTION OF INVESTMENTS IN THE TOURISM SECTOR OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ABSTRACT. The article analyzes the theoretical, organizational, and practical aspects of attracting investments into the tourism sector of the Republic of Uzbekistan. Factors affecting the efficiency of investment activities, sources of financing, as well as legal and economic mechanisms are examined. Based on international experience, the paper highlights the ways of developing investment activities in tourism enterprises and outlines the specific features of financial-investment operations

Keywords: tourism, investment activity, financing mechanism, foreign experience, net profit, competitiveness.

Bugungi kunda barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim shart- sharoitlari va omillari orasida investitsion faoliyat alohida o‘rin egallaydi. Investitsion faoliyat samaradorligini ta‘minlash jarayonlariga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar natijasida, xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarishda investitsiya sig‘imi va samaradorligi ortib boradi. Investitsiya qaytimining real shakli pul mablag‘lari ko‘rinishida o‘zlashtirilib, korxonaning yalpi daromadida o‘z aksini topadi.

Iqtisodiy munosabatlarining hozirgi takomillashgan bosqichida investitsiya resurslari uchun alohida sub‘ektlar o‘rtasida raqobat kurashi kuchayib boradi.

Ushbu raqobat muhiti ta'sirida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalaridagi tashkiliy-huquqiy tuzilmalar faoliyatini qisqa va uzoq muddatli rivojlanishini tartibga solishning turli mexanizmlari amal qiladi.

Mamlakatda bozor munosabatlari ta'sirida investitsiya faoliyatini rag'batlantirish mexanizmining maqbullashtirilishi qisqa va uzoq muddatli davr uchun korxonada iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi[1].

Investitsion faoliyat samaradorligi, investitsion faoliyat mexanizmini amal qilishining tashkiliy-iqtisodiy tizimiga bog'liq bo'lgan huquqiy, resurs va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olgan tashkiliy-iqtisodiy shakllar va usullar majmuasiga bog'liq bo'ladi.

Korxonalarda investitsion faoliyatni amal qilishining nazariy va tashkiliy asoslarini shakllantirishga yo'naltirilgan qator tadqiqotlarda investitsion faoliyatning investitsiya jarayonlarini tashkil etishdagi o'rni nisbatan kengroq darajada talqin etiladi.

Iqtisodchi olimlardan Maykl D.Jonk va Lorens J.Gitman "investitsiyalar - bu daromad va kapital qiymatini saqlanishini ta'minlaydigan yoki uning qiymatini oshirishiga qaratilgan kapitalni joylashtirish usulidir" - deb ta'riflagan[2].

Boshqa iqtisodchi olimlar esa "investitsiyalar bu kapitalni saqlash va oshirish maqsadidagi pullik qo'yimalardir" – deb ta'rif berishgan[3]. Ko'pgina iqtisodchi olimlar tomonidan investitsiyalar mazmuniga bo'lgan qarashlarda ularning fikrlari xuddi shunday talqinda bo'lib, unchalik o'zgarmagan. Investitsion faoliyat tahlilini amalga oshirish yondashuvi bo'yicha bir qator ko'zga ko'ringan hozirgi zamon iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot monografiyalarida va o'quv qo'llanmalarida o'z aksini topgan.

Mamlakatimizda investitsiya faoliyatiga doir olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda "investitsion faoliyat mexanizmini amal qilishining investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish bosqichlari, investitsiya faoliyatida kapital

qurilish, investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlash, investitsiyalarning moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini baholash jarayonlariga ta'siri" tadqiq etilgan[4].

Shu o'rinda, korxonalarda investitsion faoliyatni amalga oshirishni moliyaviy jihatdan ta'minlovchi manbalarning tahlili yuzasidan iqtisodchi olimlarning fikr va mulohazalariga to'xtaladigan bo'lsak, investitsion faoliyatni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini nazariy jihatlarini qator iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Masalan, professor Y.Mirkinning fikriga ko'ra, investitsiyalarni moliyalashtirishning real, istiqbolli shakli kompaniyalarning jamg'armalarini ikkilamchi bozordan aksiyadorlik kapitaliga joylashtirishni ko'paytirish hisoblanadi, ammo investitsiyalarni moliyalashtirishning manba darajasi juda past[5].

Taniqli iqtisodchi olimlardan U.Sharp ham investitsiya faoliyatini fond bozori orqali moliyalashtirish mexanizmiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikriga ko'ra, qimmatli qog'ozlarning daromadlilik va risklilik o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqaga ega bo'lgan oqilona investitsion strategiya investitsion faoliyatni moliyalashtirishning asosi hisoblanadi[6].

Moliyaviy vositachilar (tijorat banklari, jamg'arma va kredit uyushmalari, kredit ittifoqlari, sug'urta kompaniyalari, o'zaro yordam fondlari, pensiya fondlari) esa, korporatsiyalarni fond bozoridan qo'shimcha mablag'lar jalb qilish imkoniyatini bilvosita ta'minlaydi.

Fikrimizcha, Y.Mirkinning fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirish mexanizmi xususidagi fikri alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning boisi shundaki, ko'pchilik MDH mamlakatlarida korporativ aksiya va obligatsiyalarga qilinadigan investitsiyalarning risk darajasi yuqoriligi va investorlar ishonchining pastligi fond bozorining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy sabablar ekanligi qator ilmiy izlanishlarda o'z ifodasini topgan.

U.Sharpning investitsion faoliyatni moliyalashtirishda moliyaviy vositachilarning roli xususidagi fikriga muvofiq, ular investitsion faoliyatni

moliyalashtirishning faol subyektlaridan biri hisoblanadi.

Bizningcha, investitsion faoliyat - investitsion faoliyatni amalga oshirishning shakli va usullar to'plami hisoblangan investitsiya manbalari va vositalarini ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirilgan qismini tizimli qo'llab-quvvatlashga asoslangan huquqiy, tashkiliy va iktisodiy, moliyaviy uslublar majmuasi hisoblanadi.

Turistik korxona doirasida investitsion faoliyat mexanizmi investitsiya qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni tartibga soluvchi asosiy elementlar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu mexanizmning asosiy elementlari: korxonaning investitsion faoliyatini tartibga solishning bozor omillari, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga soluvchi huquqiy chora-tadbirlar, ichki tartibga solish imkoniyatlari kabi investitsiyalarni boshqarishni amalga oshirishning o'ziga xos usullaridan iborat.

Investitsion faoliyatni amal qilishining nazariy va tashkiliy asoslari doirasidagi umumiy xulosalar investitsiya faoliyatini boshqarish mexanizmlariga doir bir qator tamoyillar asosida shakllanadi (yo'naltirilganlik, ob'ektivlik, qonuniylik, axborotlarning etarliligi, tizimlilik).

Turizmda investitsion faoliyatni samarali amal qilishi quyidagilar orqali namoyon bo'ladi:

investitsion faoliyatda maqsadli, taktik va strategik jarayonlarning aloqadorligi;
investitsion faoliyatning boshqaruv ob'ekti elementlarida moddiy- texnik, moliyaviy, ijtimoiy, institutsional va boshqa manbalardan kompleks foydalanishning o'rni;
investitsiya muhitiga tartibga soluvchi ta'sirlarning samaradorligini ta'minlaydigan investitsiya faoliyatining barcha ishtirokchilarining davlat tomonidan tartibga solinadigan munosabatlari va o'zaro bog'liqliklari to'plami va hokazo.

Investitsion faoliyat strategiyasining uzoq davr uchun amal qilishi, investitsion resurslarning umumiyligi, tarmoq va korxona doirasida investitsiyalarni joylashtirishning davlat hokimiyati organlari tomonidan

foydalaniladigan ta'sir etuvchi usullar, vositalar va ta'sir kuchlariga qarab o'zgarib boradi. U jarayonning tarkibiy yo'nalishi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

investitsion faoliyat strategiyasining taktik va strategik boshqaruv mezonlariga muvofiqligi;

investitsion faoliyat boshqaruv omillarining maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan turli elementlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi;

menejment resurslari, tanlangan boshqaruv uslubi qo'llanilgan va maqsadga erishilgan holda foydalaniladigan moddiy, texnik, moliyaviy, ijtimoiy, institutsional va boshqa manbalar.

“Investitsion faoliyat mexanizmini samarali amal qilishi maksimal foyda olish maqsadida investitsiyalar hajmi, tarkibi, yo'nalishlari va amalga oshirilishini shakllantirish imkoniyatini beradi”[7]. Shuningdek, korxonaning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda uzoq va qisqa davr uchun tizimli ta'sir ko'rsatish xarakteriga ega.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarmoq tarkibiga kiruvchi ishlab chiqarish majmualarining va korxonalarning uzoq muddatli sharoitda samarali faoliyat yuritishi hamda raqobatbardoshligining ortib borishi, eng avvalo, investitsion faoliyat mexanizmning samarali tashkil etilganligi, uning texnologik va innovatsion omillar bilan uyg'unligi darajasi bilan baholanadi.

Turistik korxonalarning barcha bo'g'inlarida investitsion faoliyatni birdek samarali olib borish chuqur o'ylangan hamda sohaning barcha xususiyatlaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan investitsion rivojlanish strategiyasi asosida olib borilishi lozim.

Ushbu holatda investitsiyalarni to'g'ri baholanganligi katta ahamiyat kasb etadi, sababi aynan baholash natijalari tarmoqning u yoki bu bo'g'inini rivojlantirish bo'yicha qarorlar qabul qilish, resurslarni oqilona taqsimlash, innovatsiyalarni qo'llash, rag'batlantirish kabi muhim qarorlar qabul qilishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu o'rinda, turistik korxonalarda moliyaviy va investitsiya faoliyatlarini

birlashtiruvchi moliyaviy-investitsion faoliyat tushunchasi va uning mohiyatini o'rganish muhimdir.

Fikrimizcha, moliyaviy-investitsion faoliyat – bu korxonalar faoliyatini takomillashtirish, iqtisodiy jarayonlarni normallashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va ijtimoiy masalalarni tartibga solishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarning butun majmuasidir.

Korxonalar faoliyatini rentabelligi va bozor raqobatbardoshligini aniqlashda sof foyda asosiy o'rin tutadi.

Sof foyda turistik korxonalar investitsiya ob'ektlarini tanlash va ularning korxona iqtisodiy rivojlanishining strategik va taktik vazifalariga muvofiqligini baholash imkoniyatini beradi. Shu sababli, sof foydani turistik korxonalar investitsion faoliyat samaradorligini asosiy mezon sifatida qayd etish maqsadga muvofiq.

Turistik korxonalar faoliyatini investitsiyalash bilan bog'liq qarorlarni qabul qilish jarayoni korxona faoliyatida muxim bosqich hisoblanganligi sababli, mavjud mablag'lardan samarali foydalanish va investitsiya qilingan kapitalning rentabelligini maksimal darajada oshirish uchun investitsiya loyihasini amalga oshirish bilan bog'liq kelajakdagi daromadlar va xarajatlarni sinchkovlik bilan tahlil qilish talab etiladi.

Demak, ushbu mavzuda ilmiy izlanish olib borishda turizm sohasida investitsiya faoliyatining ilmiy-nazariy va tashkiliy asoslarini o'rganish, xorij tajribasini tahlil qilish va milliy sharoitda qo'llash imkoniyatlarini aniqlash, mavjud muammolar hamda moliyaviy-investitsion omillarni baholash orqali turizm tashkilotlarida investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Н.В.Киселёва, Т.В.Боровикова, Г.В.Захарова и др.; Инвестиционная деятельность / Под ред. Г.П. Подшиваленко и Н. В. Киселёвой. М.: КНОРУС, 2005. 432 с.

2. Гитман Л.Д., Джонк М.Д. Основы инвестирования. - М.: Дело, 1999. – 489 с.
3. Фатхутдинов Р.А. Разработка управленческого решения. - М.: ЗАО “Бизнес-школа” “Интел-Синтез”, 1997.- 89 с.
4. Маматов Б.С, Хужамкулов Д.Ю, Нурбеков О.Ш. Инвестицияларни ташкил этиш ва молиялаштириш. Дарслик. - Т.: Иқтисод-молия, 2014. - 84-б.
5. Шарп У. и др. Инвестиции. Пер. с англ.-М. ИНФРА-М, 2001. - с. 9-10.
6. Аюпова Л.К. Содержание организационно - экономического механизма инвестиционной деятельности промышленных предприятий // Экономические науки. 2007. №8 (33). с. 260